



## TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

Jumayev Shohruh Alimardon o'g'li

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat talabasi

[Akhmedovdiyorbek7@gmail.com](mailto:Akhmedovdiyorbek7@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA:**

Ta'lim metodlari va vositalari – ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlovchi asosiy unsurlardir. Ushbu tezzisda ta'lim metodlarini tahlil qilish va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishiga e'tibor qaratiladi. Ta'limda qo'llaniladigan turli metod va vositalar haqida fikr yuritilib, ularga misollar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim metodlari, Ta'lim vositalari, Pedagogika, Interaktiv ta'lim, Ta'lim jarayoni

### **АБСТРАКТНЫЙ:**

Образовательные методы и средства являются основными элементами, обеспечивающими эффективность образовательного процесса. Данная диссертация посвящена анализу образовательных методов и их использованию в образовательном процессе. Обсуждаются различные методы и инструменты, используемые в образовании, и приводятся примеры.

**Ключевые слова:** Методы обучения, Средства обучения, Педагогика, Интерактивное образование, Образовательный процесс

### **ABSTRACT:**

Educational methods and tools are the main elements that ensure the effectiveness of the educational process. This thesis focuses on the analysis of educational methods and their use in the educational process. Various methods and tools used in education are discussed and examples are given.

**Key words:** Educational methods, Educational tools, Pedagogy, Interactive education, Educational process

### **Kirish**

Ta'lim metodlari va vositalari zamonaviy pedagogika fanining ajralmas qismini tashkil etadi. Har bir metod o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ta'lim jarayonida o'zaro bog'langan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim metodlari o'quvchilarning





bilim olish jarayonini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Ushbu tezzisda turli ta'lim metodlari va vositalarining tavsifi, ularning afzalliklari va kamchiliklari haqida fikrlar bayon etiladi.

Ta'lim berish, har bir mavzuning magzini talabalar ongiga yetkazish maxorati o'kituvchidan ko'p izlanishni, ko'p mutola kilishni talab kiladi. Bilim ummoniga boy bo'lgan ustozgina mavzuni magzini talabalar ongiga moxirona yetkaza oladi. Mavzuning maksadiga karab, ta'lim metodlarini tanlay biladi.

Ta'lim metodlaridan okilona foydalanib, ilmiy dars o'tish, o'kuvchilarni xayotda o'z o'rnini topishga, ongning shakllanishiga katta asos bo'lib xizmat kiladi. O'kituvchining ma'lum fan ilmini o'kuvchilar ongiga yetkaza olish maxorati, shu o'kuvchilarni bo'lgusi xayot yo'llarini tanlashda muxim ahamiyatga ega. Oldin bayon kilganimizdek, ta'limning moxiyati inson kamolotini shakllantirishga xizmat kiladi. Ta'lim metodi ta'limning maksadi va vazifalariga boglik. Metodlar o'kuvchilarning yoshiga, ta'limning mazmuniga va funksiyasiga karab tanlanadi. O'kituvchi o'zining shaxsiy sifatlari: komilligi bilan talabalarga o'rnak bo'lishi, ta'limiy maksad bilan tarbiyaviy maksad mutanosibli, fan asoslari va goyalarini chukur bilishi bilan talabalarga o'rnak bo'lishi talab kilinadi.

Bunday o'kituvchilardan bilim olayotgan talabalar nimani bilish kerak ekanligini idrok kilib beradilar. Nazariy bilimlar amaliyotga ko'chirilganda, uni anik his kilib, tasavvur kilib o'zlari amalda bajaradilar, masalalar yechadilar. (Iktisodiy, matematik, pedogogik. So'ngra bilimlari moxiyatini tushunib oladilar. Shu mavzu bo'yicha anik ko'nikmaga ega bo'ladilar. Shu asnoda boshka fanlardan ham bilim olish va amaliy mashgulotlar evaziga ularda ko'nikmalari boyib boradi.

Talabalar o'zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatlariga karab sekin-asta amaliyotga ko'llay boshlaydilar. Talabalar bilan bo'lgan mulokotda, ularga bilim berish jarayonida o'kituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshkarishi lozim. Ta'lim-tarbiya jarayoni uzviy jarayondir. Ta'lim berish jarayonida tarbiyalayotganligimizni unutmashimiz lozim. Suxandonlik, kinoyasiz so'zlash, o'kituvchiga xos kiyinish etikasi, fikrni erkin bayon kilish va uni tamasiz yetkaza olish xususiyatlari o'kuvchilar uchun amaliy ko'rgazma ekanligini unutmashlik kerak. Ta'lim berishda o'kitish metodlari asosiy o'rinni egallaydi.

Metod - yunoncha atama bo'lib, aynan nimagadir yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maksadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar)ni har kandy muammoni (maksadni) uzatish va kabul kilish harakteriga karab kuyidagi turlarga ajratish mumkin:





So‘z orkali ifodalanadigan metod;

Ko‘rgazmali metod;

Amaliy metod.

Ta‘lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘kuvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish kobiliyati, ta‘lim manbai, didaktik vazifalarga karab, munosib ravishda quyidagi metodlar ko‘llaniladi:

- o‘kitishning ma‘ruza ( suxbat) metodi;
- o‘kitishning amaliy ishlar metodi.
- Laboratoriya ishlar metodi.
- Mustakil ishlar metodi.
- Muammoli evristik modellashtirish metodi.
- Ilmiy tadqiqot metodlari.
- O‘kitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi.
- O‘kitishning induktiv va diduktiv metodi.
- o‘kitishning nazorat va o‘z-o‘zini nazorat kilish metodi.

Metodlar quyidagi guruxchalarni o‘z ichiga oladi:

Birinchi gurux metodlari: – so‘z orkali uzatish va informatsiyani eshitish orkali kabul kilish metodlari (ogzaki metodlar: xikoya, ma‘ruza, suxbat va boshkalar).

Ikkinchi gurux metodlari: – o‘kuv informatsiyasini ko‘rgazmali uzatish va ko‘rish orkali kabul kilish metodlari (ko‘rgazmali metod, tasviriy namoyish kilish va boshkalar).

Uchinchi gurux metodlari: o‘kuv informatsiyasini amaliy mexnat harakatlari orkali berish (amaliy metodlar, mashklar, laboratoriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni yechish, mexnat harakatlari va boshkalar).

Ta‘limning ragbatlantirish metodlari:

1. Ta‘limga kizikishni ragbatlantirish metodi.
2. Ta‘limga burch va mas‘uliyatini ragbatlantirish metodi.

Xuddi shuningdek, ta‘limda nazorat va o‘zini-o‘zi nazorat kilish metodlari quyidagilar.

1. Ogzaki nazorat va o‘z-o‘zini nazorat kilish.





2. Yozma nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish.

3. Laboratoriya va amaliy nazorat va o‘z -o‘zini nazorat qilish metodi.

4. Test nazorati.

Bu metodlardan talabalarda bilish faoliyatini, kabul qilish, anglash va amalda ko‘llash faoliyatini shakllantirishda foydalaniladi.

Tushuntirish va uktirish metodi.

Ushbu tarzdagi metodni ko‘llashda o‘kituvchi so‘z vositasida mavzuni bayon qiladi va tushuntiradi. O‘kuvchilar esa tinglashadi, eslab kolish, anglab yetish orkali uni faol kabul qiladi va o‘zlashtiradi

Mavzuning asosini tushuntirish va uktirishda xikoya usulidan foydalaniladi. O‘kuvchilari mazmunini ogzaki bayon qilish, uning asosiy joylarini tushuntirish ko‘zda tutiladi. Bu maksadga erishish uchun, xikoya metodini ko‘llash samarali natija beradi. Bu metod orkali mavzuga xizmat kiladigan ma’lumot va vokealarni bayon qilish diqqatni faollashtiradi, xotirada saklashni jadallashtiradi. Xikoyani bayon qilish, uktirish metodlarini samarali ko‘llash shartlari: rejani kuni bilan o‘ylash, mavzuni yoritishning okilona izchilligini ta’minlash, misollar va xikoyalarni muvaffaqiyatli tanlash, tushuntirish va uktirishda zaruriy emotsionallikni tanlash darkor.

Xikoya bir necha turga bo‘linib, xikoya mukaddima, xikoya bayon, xikoya xulosalarga bo‘linib, ular mavzuni yoritishga xizmat kiladi.

Mavzuni tushuntirishda ogzaki bayon qilish, tushuntirish yoki biror bir lavxani ko‘rsatish, ( illyustratsiya)ni ko‘zda tutib, xikoyadan o‘zining xajmi kattaligi, mantiqiy ko‘yilishi, obrazli isbotlash va umumlashtirish orkali mavzu maksadiga erishiladi, xikoya qilish mavzuning maksadini bir kismiga xizmat kiladi.

Ma’ruza matnini tushuntirish va uktirish informatsiyani ogzaki bayon qilish, uzok vakt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarning fikrlashini faollashtirish usullari, isbotlash, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshka usullaridan foydalaniladi.

Tushuntirish va uktirish metodi atroflicha o‘ylangan fikrlar, savollar yordamida bilim berilib, u o‘kuvchini faktlar tizimini, yangi tushunchalar va konuniyatlarni o‘zlashtirishga olib keladi.

Ta’limning muammoli-kidiruv metodlari; tizimni so‘z orkali ifodalash, ko‘rgazmali va amaliyot metodlari yordamida foydalaniladi. Ta’limni muammoli o‘kitish jarayonida o‘kituvchi talabalarning bilish faoliyatini ko‘zgatadigan,





faollashtiradigan, ongni charxlaydigan vazifalar beradi. Talabalar mustakil xolda yoki o'kituvchining yordamida uni yechish, xal kilish uchun ijodiy izlanadilar. Muammoli o'kitish yoki muammoli masalalarning yechilishini talab kilish o'kuvchilarning egallagan ilmiy bilimlariga hosil kilingan ko'nikmalariga asoslangan xolda izlansa yoki olingan bilimlarini xotirlasa, bemalol o'zi yecha oladigan kilib tuzilish kerak. Aks xolda, masala talabaning ulgurmagan bilimlariga ham asoslanib tuzilsa, u xolda talaba o'ziga ishonmay koladi, o'zidagi bilimga ishonchi yo'koladi, har kanday ilmiy ta'lim talaba uchun muammolidir. Chunki talabaga xozirgacha noma'lum bo'lgan yangilik bilan tanishtiradi. Muammoli o'kitish talabaning fikrlash faoliyatini o'stiradi, har narsani bilishga kizikish uygotadi. Faxm-farosatli, mustakil ijod kilishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Kanday sonning birinchi darajali hosilasi 1 ga teng?

Logorifm manfiy asosda nima uchun ma'noga ega emas?

Nima uchun trigonometrik funksiyalarning nomi o'z juftini o'zgartiradi?

Yoki pedagogik muammoli masalalar yechimini karaylik.

Pedagogik masala:

Ota o'z o'glining yetuklik attestatini olishi va 16 yoshga to'lishi munosabati bilan ziyofat berdi. U o'ziga va o'gliga ham kadax to'ldirdi, o'glini bugungi baxtli kuni bilan tabriklab o'gliga kadax uzatadi. Siz oila a'zolarining bu vokeaga bo'lgan munosabatlarini kaysi birini to'gri deb o'ylaysiz?

a) dadasi – o'glim muborak yoshing bilan tabriklayman, shu munosabat bilan bir kadax ko'taraylik!

b) buvisi – jon bolam, sen spirtli ichimliklarga o'glingni o'rgata ko'rma, xech kachon ichmasin, martabasi ulug bo'lsin, baxtli bola bo'lsin.

v) bobosi – mayli, dadangni so'zi yerda kolmasin, do'stlari oldida izza kilma, kadaxni urishtirib, bir xo'plab bera kol.

g) oyisi – o'glim, dadang senga kadax uzatib, bu spirtli ichimliklarning kanchalik zararli ekanligini bilish yoki bilmasligingni sinab ko'rmokchi bo'ldi.

Bu tarzdagi test savollari muammoli tarbiyaviy masala, o'kuvchining akliy va axlokiy bilimini kengaytiradi. Ongini, tafakkurini charxlaydi. Insonlarga bo'lgan muomala madaniyatini takomillashtiradi. Shunga o'xshash masalalarni muttasil yechib borgan, akliy va axlokiy bilimlar ko'nikmasiga ega bo'lgan talaba komillikka erishib boradi.





## Ma'naviy-ijodiy metodlar

Inson ma'naviyatining shakllanishi juda murakkab jarayon. Insonning ma'naviy sifatlarini shakllantirishda oila, atrof-muxit, jamiyat katta rol o'ynaydi. Ota-onaning mexri, atrofdagilarning mexri, ularni olkishlari bolani mustakil fikrlashga va mustakil ish boshlashga ishonchini uygotadi. Ustozlar, ota-onalar boladagi bu harakatni, ishonchni sezgandan boshlab, ularga sharoit yaratish va ularni to'g'ri yo'naltirishlari lozim. Ota-ona va ustozlar orasidagi tarbiya uzviyligi yoshlarning shakllanishida muxim ahamiyatga ega. Sen o'zing uddalay olasan, bunga kurbing yetadi, deb ishontirish va bu ishonchni "Ma'naviy-ijodiy metod" orkali amalga oshirish mumkin. Ushbu metod uch boskichda amalga oshiriladi:

- a) o'kuvchilarda bilishga kizikishni uygota bilish;
- b) o'kuvchilarning egallagan bilimiga va tajribasiga asoslangan xolda masala ko'yish, hamda ularga suyanib masalalarni taxlil qilish;
- v) o'rganish kerak bo'lgan muammo ustida mustakil fikr yuritib xulosa olishga erishish.

Yukoridagi boskichlarni amalga oshirish jarayonida talabalar, insonning boy xazinasini uning o'zida yashiringanligini tushunadilar. Fakat buning uchun o'kituvchi ulardagi kizikishni, yashiringan iktidorini anglay bilishi kerak.

Ilm olish, odatiylik, aklni peshlash, o'z ustida ishlash, xikmatlarni bilish, kamtarlik, ma'rifatli bo'lish kabi fazilatlarga fakat mexnat qilish va bilim olish, o'kib-o'rganish, xayotni kuzatish orkali erishish mumkin.

O'kuv ma'ruza metodi: o'kuv materialini ogzaki bayon qilishni ko'zda tutadi, xikoya metodidan o'zining xajmi kattaligi, mantikiy kurilishi, umumlashtirishning murakkabligi bilan ajralib turadi. Ma'ruza butun dars yoki mashg'ulotni band etadi. Xikoya esa fakatgina uning bir kismini egallaydi.

Ma'ruza davomida informatsiyani ogzaki bayon qilish, uzok vakt davomida dikkatni tutib turish, tinglovchilarni fikrlarini faollashtirish usullari, argumentlash, isbotlash, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshkalardan foydalaniladi.

Suxbat metodi: Ogzaki bayon qilishning asosiy turlaridan biri. Tarkibida eng ko'p ko'llaniladigan samarali usullardan biridir. Ko'pincha bu usul savol-javob usuli ham deb yuritiladi. Dars berish jarayonida o'tilayotgan mavzu yuzasidan kirish asosiy va yakunlovchi kislmlarda suxbat, savol-javob metodi ko'llaniladi. Suxbat metodida atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'kituvchi va o'kuvchilar orasidagi suxbatni





ko'zda tutib, u o'kuvchini faktlar tizimini yangi tushunchalar va konuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari: ular shartli ravishda ikkiga bo'linadi.

1. Illyustratsiya metodi: – plakat, harita, doskadagi rasm, olimlarning portretlari, suratlar va boshkalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi.

2. Namoyish kilish metodi – asboblar, tajribalar, texnik kurilmalar, turli tipdagi preparatlarni namoyish kilish bilan boglik. Namoyish kilish metodiga boglik kinofilmlar va diafilmlar ham kiradi.

Ta'limning amaliy metodlari: yozma mashklar, ona tili va chet tili, matematika va boshka fanlar bo'yicha topshiriklarni bajarish mashklari kiradi. Xuddi shuningdek, laboratoriya tajribalari, ustaxonalarda, o'kuv-ishlab chikarish sexlari, o'kuvchilar brigadalarida mexnat topshiriklarini bajarishlari ham ta'limning amaliy metodidir.

Ta'lim vositalari: ta'lim maksadini amalga oshirish yo'lida xizmat kildirayotgan metodlarni muvaffakiyatli chikishida ishlatiladigan o'kuv asboblaridir. Ular issiklik sigimini o'lchash asbobi, kompyuterlar, EXMlar, logorifm lineykasi, apparat turlari, turli xil o'kuv asboblaridan tashkil topadi.

### Foydalanuvchi adabyotlar;

1. M. Qodirov, "Pedagogik metodlar va vositalar", Toshkent, 2022.
2. S. Yusupov, "Zamonaviy ta'lim metodlari", Buxoro, 2021.
3. R. Ahmadova, "Ta'lim jarayonida interaktiv usullar", Samarqand, 2020.
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/ta-lim-metodlari-va-vositalari>

